



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 14-dekabr, № 266 (8609)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MINTAQADA BARQARORLIK VA BIRDAMLIK KAFOLATI

Shu yilning sentabr oyida Tojikistonda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvi o'tkazildi. Unda Prezidentimiz iqtisodiy hamkorlik, transchegaraviy logistika va mintaqada suv resurslarini samarali boshqarish masalalariga oid bir qator aniq va konstruktiv takliflarni ilgari surdi.



kulochilik mahsulotlari, rangli metallar, elektrotexnika va mexanik uskunalar eksport qilinadi.

Biroq bu borada yechimini kutayotgan masalalar ham yo'q emas. Masalan, Tojikiston tomonidan taqdim etilgan statistikaga ko'ra 2022-yilning shu davridagiga nisbatan o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 15,3 foizga qisqargan. Bunga, asosan, Tojikiston mahsulotlarining O'zbekistonga eksporti kamaygani sabab bo'lgan. Bunday holat 2017-yildan beri ilk bor kuzatilmoqda. Chunoschi, so'nggi yillarda bu ko'rsatkich qariyb 8 baravarga — 2016-yildagi 70 million dollardan 2022-yilda 555 million dollargacha ko'tarilgan edi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalarini jadallashtirish uchun ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari
So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida ro'y berayotgan

ijobiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan huquqiy-demokratik islohotlar xorijiy ishbilanmonlarning yurtimizda biznesni rivojlantirishga katta miqdorda investitsiyalar kiritishlari uchun imkon yaratdi. Natijada ko'plab sanoat zonalarini barpo etildi, jahonning eng mashhur kompaniyalari bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar ishga tushirildi. Mintaqada barqaror savdo-logistika zanjirlari shakllantirildi, chegaraldagi hududlarda savdo va kooperatsiya markazlari ochildi va kengaytirilmoqda.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbari sammitda **birinchi masala** — davlatlararo o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va rivojlantirish, o'zaro savdo bo'yicha qonunchilikni uyg'unlashtirishni taklif etdi. Xususan, bo'xona ma'murchiligi, sanitar va fitosanitar nazorati, tovarlarni sertifikatlash jarayonlarini raqamlashtirish dasturini qabul qilish istiqbollari asoslab berdi.

Ikkinchi masala — bugungi kunda aholining mehnatga layoqatli qatlamini ish bilan ta'minlashda eng samarali vositalardan biri bo'lgan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishdan iborat. Bu — yangi avtomobillar, maishiy texnika, to'qimachilik mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish, qo'shni davlatlar bilan chegaraldagi hududlari kooperatsiyasi.

Shuningdek, uchinchi davlatlarga eksport muhitini yaratish Markaziy Osiyo mamlakatlarining uzoq istiqbolga mo'ljallangan sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning asos ekanini hisobga oladigan bo'lsak, bu bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish kerak bo'ladi. Binobarin, mineral o'g'itlar, polimerlar, metall buyumlar, tayyor to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi texnikalarini yig'ish bo'yicha mavjud imkoniyatlar hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va yirik istiqbolli loyihalarni hayotimizga keng tatbiq qilish vaqti kelganini bildiradi.

MAQSD — MARKAZIY OSIYONI IQTISODIY RIVOJLANGAN VA YUKSAK TARAQQIY ETGAN MAKONGA AYLANTIRISH

Davlatimiz rahbari olib borayotgan ochiq, do'stona va pragmatik siyosat O'zbekistonning nafaqat mintaqadagi, balki xalqaro darajadagi nufuzini yuksaltirishda asosiy omil bo'lmoqda. Shu ma'noda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturining birinchi sammitidagi ishtiroki xalqaro doiralarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi rolini hisobga olgan holda juda muhim, deb baholanayotir.

Mushohada

Ayonki, aynan O'zbekistonning sa'y-harakatlari bilan bundan 25 yil avval, ya'ni 1998-yilda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPECA) tashkil etilgan edi. Joriy yilda esa BMT Bosh Assambleyasining ushbu sanaga bag'ishlangan alohida rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Shu yilning 23-24-noyabr kunlari Ozarbayjon poytaxti Bokuda bo'lib o'tgan BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturining birinchi sammitida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan taklif va tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan qizg'in kutib olindi.

Davlatimiz rahbarining SPECA doirasida hamkorlikning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ishchi guruhlar faoliyatini samaradorligini tubdan oshirish va dasturning institutsional asoslarini mustahkamlash zarurligi to'g'risida bildirgan takliflari ushbu tuzilmani tezroq samarali mintaqaviy platformaga aylantirishga xizmat qilishi muqarrar. Zotan, qayd etilganidek, mazkur muhim platforma Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy sheriklikning amaliy mexanizmi sifatida o'zining nihoyatda zarurligini yaqqol ko'rsatadi.

Dastur doirasida tijorat, kommunikatsiya,



transport va logistika, raqamlashtirish, energetika, suv resurslari, ekologiya, gender tengligi va boshqa sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 400 dan ortiq loyihalar hayotga tatbiq etildi, savdoni soddalashtirish va innovatsion rivojlanish strategiyalari qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining oqilona tashqi siyosati tufayli so'nggi yillarda Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnihilik va ishonch muhiti kuchayib, integratsiya jarayonlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Ayni chog'da Markaziy Osiyo mamlakatlari Ozarbayjon, Gruziya va Vengriya bilan sanoat kooperatsiyasi hamda infratuzilma bo'yicha yirik dasturlarni amalga oshirmoqda. Qo'shma investitsiya kompaniyalari tashkil qilinib, moliyalashtirish mexanizmlari yo'lga qo'yildi. Chegara hududlarda zamonaviy savdo-logistika markazlari va maxsus iqtisodiy zonalar barpo etilmoqda.

Senat qo'mitalarida

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA QATOR YENGILLIKLAR YARATILMOQDA

Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalariga qo'mitasi yig'ilishida navbatdagi yalpi majlisda ko'rib chiqilishi rejalashtirilayotgan qonunlar muhokamadan o'tkazildi.



Dastlab "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi qonun tahlil markazida bo'ldi.

Qonun yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakillarining axboroti eshitildi hamda qizg'in muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, qonunga asosan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardagi nazarda tutilgan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish borasidagi vazifalar inobatga olingan. Ayni chog'da unga muvofiq aloqa va axborotlashtirish sohasida qabul qilingan dasturlar asosida IT xizmatlari eksportini 500 mln. AQSH dollariga hamda IT-park rezidentlari sonini 2 mingtaga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Shundan so'ng majlisda "Davlat xizmatlari ko'rsatish hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Unda tadbirkorlik subyektlariga qator yengilliklar yaratilmoqda. Jumladan, bugungi kunda xususiy bandlik agentliklarining reyestriga kirish uchun yuridik shaxslar ariza bilan birga litsenziyani ham taqdim qilmoqda. Bu qonun bilan esa reyestriga kirish to'g'risida birgina ariza taqdim etishning o'zi kifoya qiladi. Ommaviy axborot

vositasini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi arizani ko'rib chiqish muddati 15 kundan 10 kungacha qisqartirilmoqda. Advokatga guvohnoma berish muddatini esa 3 kundan 2 kungacha kamaytirish ham ko'zda tutilayotir.

Shuningdek, qo'mita majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga respublika hududida internet va aloqa qamrovini kengaytirish uchun sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun tahlil qilindi.

Ma'lumki, dunyo bo'ylab yo'ldosh aloqa tarmoqlarining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi, sohada yangi texnologiyalarning joriy etilishi hududlarni internet va aloqa bilan ta'minlash bo'yicha yangi texnologik imkoniyatlarni yaratmoqda.

Mazkur qonun bilan respublikada global ko'chma yo'ldosh aloqa tarmoqlari xizmatlari dasturlaridan qonuniy asosda xavfsizlik talablarini bajargan holda foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Senatorlar tomonidan muhokama qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan jinoyatchilarga qarshi tezkor-qidiruv faoliyatini olib borish mexanizmini yanada takomillashtirish nazarda tutilayotir.

Xususan, "Tezkor-qidiruv faoliyatini to'g'risida"gi hamda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlarga bir qator o'zgartirishlar kiritilayotir. Ko'rilgan masalalar yuzasidan Senat qo'mitasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

DAVLAT BUDJETNING TO'QQIZ OYLIK IJROSI KO'RIB CHIQILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda deputatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlarining 2023-yil to'qqiz oylik ijrosi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqdi.

Hisobotda keltirilganidek, asosiy iqtisodiy hamkorlarimiz bo'lgan davlatlarda iqtisodiy o'sishning pasayishi kabi holatlar kuzatilayotganligiga qaramasdan, o'z vaqtida amalga oshirilgan keng ko'lamli va izchil islohotlar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish imkoniyatini berdi.

2023-yilning to'qqiz oyida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 5,8 foizga, xizmatlar sohasi — 6,5, sanoat — 5,7, qurilish ishlari — 5,6 va qishloq xo'jaligi 4,1 foiz o'sgan. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar 14,3 foizga oshib, 14,4 mln. so'mni tashkil etgan. Tashqi savdo aylanmasi 44,7 mrd. dollarga yetib, 2022-yilning mos davridagiga nisbatan 22,1 foiz o'sgan.

Mamlakatimizda rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borilganligi, samarasiz soliq va bo'xona imtiyozlarining bekor qilinishi natijasida tadbirkorlik faolligi sezilarli darajada oshdi. Soliq ma'murchiligi takomillashtirish va soliq to'lovchilarga qulayliklar yaratish evaziga legal faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari soni ortib bormoqda.

Natijada Davlat budgeti daromadlari hajmi 162,9 trln. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davridagiga nisbatan 16,6 trln. so'mga oshirib



bajarilgan. Mahalliy budgetlar daromadlar prognozi oshirib bajarilgan qismi hisobidan 2023-yilning to'qqiz oyida hududlar ixtiyorida jami 3,0 trln. so'm mablag'lar qoldirildi.

Qayd etilganidek, Davlat budgeti xarajatlari qismida ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyili saqlab qolingan holda, umumiy xarajatlarning 98,5 trln. so'mi yoki 49,0 foizi ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun sarflandi. Bunda ijtimoiy xarajatlarning 88,5 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash xarajatlarga to'g'ri keladi.

Budget ijrosi hisoboti muhokamalarida deputatlar erishilgan ijobiy natijalar bilan birga, mavjud imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmaganlik holatlariga ham e'tibor qaratishdi.

TRANSPORT VAZIRLIGIGA QANDAY E'TIROZLAR BO'LDI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi. Unda deputatlar "Aholiga transport xizmati ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, jamoat transporti yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi masalani muhokama qildi.

"Hukumat soati"

Mazkur masala yuzasidan deputatlar savollariga O'zbekiston Respublikasi transport vaziri I. Mahkamov javob berdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish, harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtotransport vositalari bilan ta'minlash bo'yicha Prezidentimizning qator Farmon va qarorlari qabul qilinib, sohada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, shu yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq, avtobuslar yo'lovchi tashish xizmatlarini ko'rsatuvchi tashuvchilar bilan hisob-kitoblari "bosib o'tilgan

yo'l" va "sifat" mezonlari asosida bajarilishi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, jamoat transportidan foydalanishda yo'lovchilar uchun qulay tariflar, jumladan, imtiyozli va bepul, cheklangan va cheklanmagan hamda rag'batlantiruvchi tariflar belgilanganligi hamda avtomatlashtirilgan to'lov tizimi joriy etilganligi aholiga qulaylik yaratish bilan birga jamoat transportidan foydalanish jozibadorligini oshirishga xizmat qilayotir.

Bugungi kunda jamoat transporti muntazam ravishda zamonaviy avtobus va elektrobuslar bilan yangilab borilmoqda. Tadbirkorlarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida shahar jamoat transportiga mo'ljallangan avtobuslar sotib olishda bo'xona boji va

qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etildi.

"Hukumat soati"da deputatlar amalga oshirilgan ishlar bilan birga jamoat transporti jozibadorligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator masalalarga e'tibor qaratdi. Jumladan, deputatlar vazirlik faoliyatida aholining yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, qatnov muntazamligi, xavfsiz, sifatlil va qulay transport xizmatlarini ko'rsatish, infratuzilmani yaxshilash, jamoat transporti harakati ustuvorligini ta'minlash borasidagi ishlarining yetarli emasligini qayd etildi.

Bundan tashqari, "Transport to'g'risida"gi Qonunda vazirlikning vakolatlari aniq belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, transport sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, tarmoqqa oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, zamonaviy boshqaruv uslublariga asoslangan yagona uyg'unlashtirilgan transport tizimini yaratish bo'yicha choralar ko'rish kabi vazifalar lozim darajada bajarilmayotir.

DARYOLAR O'ZANLARINI TOZALASH QONUN DOIRASIDA OLIB BORILYAPTIMI?

Yodingizda bo'lsa, Oliy Majlis Senatining yalpi majlislaridan birida daryolar o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash hamda noruda foydali qazilmalarni qazib olishning atrof-muhit, suv va yo'l xo'jaligi obyektlariga salbiy ta'siri yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'rovi natijalari muhokama qilingan va uning dolzarbligi inobatga olinib, ushbu masala parlament yuqori palatasining nazoratida qoldirilgan edi.

Parlament nazorati

O'tgan vaqt davomida senatorlarning e'tiroziga sabab bo'lgan ko'plab holatlarni bartaraf etish ustida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Ammo senatorlarning joylarga chiqib olib borgan o'rganishlari qator

masalalar o'z yechimini topmaganligini ko'rsatadi.

Shu bois Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'rovi natijasi Senatning yalpi majlisida yana bir bor muhokama qilindi.

Unda senatorlar tomonidan hukumat vakillari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari oldiga nima uchun avval ko'tarilgan muammolar hali ham hal etilmagan yuzasidan aniq savollar qo'yildi.

Xususan, Abdurahim Panjiyev Senat tomonidan yuborilgan parlament so'roviga hukumat vakillari e'tiborsiz munosabatda bo'lganini tanqid qilib, muammolar hal etilmaganini bildirgan bo'lsa, Rustam Xolmurodov muayyan tashkilotlar bu kabi milliy muammolarga bee'tibor bo'layotganini, masalaga jiddiy yondashish zarurligini aytib o'tgan edi.

Shundan so'ng Vazirlar Mahkamasiga vakillari bildirilgan e'tirozlar jiddiy e'tibor qaratib, vaziyatni nazoratga oldi va qonunbuzarliklarga nisbatan



ta'sirchan choralar ko'rilishini ta'minladi. Jumladan, daryo o'zanlarida qum-shag'al qazib olish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlaridan litsenziya yoki shartnoma muddati tugagandan so'ng kon yoki uchastkani qabul qilib olish tartibini takomillashtirish yuzasidan to'rt vazirlikning qo'shma qarori imzolandi. U bilan o'zanni tozalash

ishlari yakunlangan obyektlarda loyiha majburiyatlari bajarilishini joyida o'rganish orqali uchastkalarni qabul qilib olish tartibi amaliyotga joriy etildi.

"O'zbekkosmos" agentligi bilan hamkorlikda suv havzalarini kosmik monitoringdan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yilib, daryolar o'zani va suvni muhofaza qilish zonalarida noqonuniy qazish holatlari konturlari belgilab olindi.

MINTAQADA BARQARORLIK VA BIRDAMLIK KAFOLATI

Uchinchi masala — Markaziy Osiyoda transport va tranzit salohiyatini oshirish, biznes uchun qulay bo'lgan oraliq tariflarni qo'llash bilan bog'liq. Jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga chiqishda transport koridorlarini rivojlantirish o'ta muhim shartlardan hisoblanadi. Bunda transport xizmatlari bozorini liberalizatsiya va ruxsat etishga doir tartib-taomillarni optimallashtirish bo'yicha dastur tayyorlash va integratsiyalashuvdagi raqamli platformalarni ishga tushirish ayni muqaddir.



ko'p tomonlama platformasini ta'asis etish takliflari berildi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish — davr talabi

Sir emaski, Markaziy Osiyoda iqtisodiy sheriklik va o'zaro hamjihatlikka asoslangan mintaqaviy rivojlanish kuzatilsa-da, suv resurslarining tanqisligi sharoitida ularidan samarasiz foydalanish bilan bog'liq muammolar mavjud. Bu holat transchegaraviy suv resurslarini boshqarishdagi nomutanosiblik tufayli yanada kuchaymoqda. Oqibatda mintaqada mamlakatlarda ekologik barqarorlikka putur yetmoqda. Bugungi mintaqaviy suv tanqisligi kuchayotgani bilan bir paytda, transchegaraviy xarakterdagi umumiy suv resurslarini xalqaro huquq normalariga muvofiq taqsimlash mintaqada xavfsizligining muhim omilidir.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, sobiq ittifoqdan keyingi davrda Markaziy Osiyo mamlakatlarida alohida suv tizimlari tashkil etilgan bo'lsa-da, transchegaraviy daryolarni boshqarish bo'yicha mintaqaviy hamkorlik hali ham shakllanmagan. Mintaqada nafaqat atrof-muhit, balki aholi salomatligiga katta xavf bo'lib qolayotgan, havoni chang bilan zararlantirayotgan Orol ekotizimining buzilishi barchani birdek tashvishlantirmoqda.

Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng asosiy omillardan yana biri — Afg'onistondagi vaziyat ekanini hammaga ma'lum. Afg'onistonning bugungi hokimiyati bilan doimiy va ochiq muloqot orqali ushbu mamlakatni mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish g'oyat muhim hisoblanadi. Maslahat uchrashuvida davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston afg'on xalqiga zarur yordam ko'rsatib kelayotgani, shu maqsadda Termizdagi xalqaro xab gumanitar ko'mak uchun taqdim etilgani, afg'on fuqarolari maxsus ochilgan ta'lim markazida o'qitilayotgani urg'ulab o'tildi.

Sammitta Transafg'on temir yo'lini barpo qilish loyihasini ilgari surish bilan birga, Afg'onistonning ichki transport yo'llarini tiklash o'ta muhimligi ta'kidlandi. Bundan tashqari, afg'on tomoni bilan chegaralar xavfsizligi, suvdan foydalanish va savdo-sotiqni rivojlantirish masalalari bo'yicha muloqot istiqbolli ekanini qayd etildi. Afg'oniston bilan hamkorlik bizning manfaatlarimizni umumiy tushunishdan kelib chiqishi va o'zaro kelishilgan holda bo'lishi, buning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakillari darajasida Muloqot guruhini tashkil qilish taklifi ilgari surildi.

O'zbekistonning tashqi siyosatida institutsional, diplomatik munosabatlar qat'iy pozitsiya sifatida xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etib kelinadi. Davlatimiz rahbari Afg'oniston bilan olib borilayotgan pragmatik ochiq muloqotda Qo'shstepta kanali qurilishi bo'yicha diplomatik munosabatlar olib borilishi lozimligini ochiqdadi. Bu borada berilgan taklif-mulohazalar ko'pchilik tomonidan ijobiy baholandi.

Uchrashuvda mintaqamizda qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish sohasida suvdan foydalanish bo'yicha yangi ishtirokchi paydo bo'lgani ta'kidlandi va jarayon Qo'shstepta kanali qurilishi bilan bog'liq. Afg'oniston tomonidan Amudaryo suvidan rejali foydalanishga doir barcha jihatlarni mintaqada mamlakatlaridagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda ilmiy o'rganish va xulosa berish, taqdimotni yaxshi qo'shnihilik kelishuvlari asosida joriy qilish bo'yicha Qo'shma ishchi guruhini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundan kelib chiqib, Afg'oniston vakillarini mintaqada uchun muhim bo'lgan suv resurslaridan birgalikda oqilona foydalanish bo'yicha kelishuvlarga jalb etishni ko'rib chiqish taklifi qilindi.

Davlatimiz rahbarining ushbu strategik taklifi qo'shni Afg'oniston va Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan o'rganilib, unga yaxshi qo'shnihilik tamoyillari asosida yondashilsa va qo'llab-quvvatlash, nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqada iqtisodiy rivojga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Mintaqaviy formatdagi bunday konstruktiv va ko'p qirrali diplomatik, savdo-iqtisodiy va transchegaraviy masalalar bo'yicha amaliy muloqotlar o'zaro iqtisodiy sheriklikni yanada kengaytirishga, hamjihatlikda taraqqiyot sari dadil odimlashga mustahkam zamin yaratadi.

Sherzod QURBONOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xodimi, ekspert.

MAQSAD — MARKAZIY OSIYONI IQTISODIY RIVOJLANGAN VA YUKSAK TARAQQIY ETGAN MAKONGA AYLANTIRISH

Hozirgi global geosiyosiy beqarorlik sharoitida mintaqada mamlakatlari duch kelayotgan xavf-xatarlarga e'tibor qaratib, O'zbekiston yetakchisi SPECA doirasidagi mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha qator amaliy tashabbuslarni ilgari surdi. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi hamda ESKAP ekspertlari bilan birgalikda "SPECA — 2030" taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqish taklifi qilindi. Bu, shubhasiz, mintaqada mamlakatlari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy savdoni rag'batlantirish maqsadida davlatimiz rahbari mavjud to'siqlarni bartaraf qilish va eksport-import operatsiyalarini texnik tartibga solish choralarini uyg'unlashtirish borasida jahondagi eng ilg'or tajriba va amaliyotlarni joriy etishni nazarda tutadigan qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq qilindi. Ushbu choralarining qabul qilinishi a'zo davlatlar o'zaro savdo aylanmasini 2030-yilga borib 100 mrd. dollarga, uning tarkibidagi sanoat mahsulotlari ulushini esa 70 foizga yetkazish imkonini beradi. "Yashil" iqtisodiyot, innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, logistika, muqobil energetika, "aqlli" qishloq xo'jaligi, zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani yaratish va boshqa sohalaridagi yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida SPECAning maqsadli jamg'armasini kelgusi yilning o'zida tashkil etish va uning amaliy ishini yo'lga qo'yish muhimligi ham bejiz aytilmadi. Jamg'arma xalqaro taraqqiyot institutlari bilan faol ishlashi, ustuvor loyiha va dasturlarga moliyaviy resurslar va grant mablag'larini eng maqbul shartlarda jalb qilishi lozim. O'zbekiston ham uni shakllantirish uchun o'z moliyaviy hissasini qo'shishga tayyorligi Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlandi.

Bugun platforma doirasida o'zaro bog'liq transport yo'laklarini rivojlantirish — ustuvor vazifa. Demak, Transkaspriy multimodal yo'lagi doirasida ma'lumot almashish jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi"ni hayotga o'tqizib qolish zarur, albatta. Shuning uchun kelgusi yilda O'zbekistonda "Raqamli transport marshrutlari" xalqaro forumini o'tkazish tashabbusi ilgari surildi. Shuningdek, BMTning ixtisoslashtirilgan institutlari bilan xalqaro muloqot bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslarni kuchaytirish bo'yicha yirik loyihalarni faol ilgari surish niyati bildirildi.

O'zbekiston yetakchisi SPECA doirasida oziq-ovqat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha yuqori darajadagi maxsus ishchi guruhi tuzishni va uning ilk uchrashuvini

kelgusi yili Samarqandda o'tkazishni taklif etdi. Ushbu tadbirim kun tartibidan a'zo davlatlar yetakchi agrosanoat korxonalarini o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish va qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish, ilmiy-texnologik almashuvlarni rag'batlantirish va resurslarni tejaydigan ilg'or yechimlarni joriy etish, "ekspres" yo'laklarni ishga tushirish kabi masalalar asosiy o'rin egallaydi.

Mazkur taklif global geosiyosiy beqarorlik sharoitida mintaqada mamlakatlari duch kelayotgan zamonaviy chaqiriq va tahdidlarni muhokama qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Suv, energetika, ekologiya va qishloq xo'jaligi sohalarini o'zaro uzviy bog'liq ekanidan kelib chiqib, SPECAning keng ko'lamli yangi konseptual hujjatini — ko'p tomonlama "Yashil strategiya"ni qabul qilish taklifi ilgari surildi. BMT tahillari qo'ra suv taqchilligi tufayli mintaqamiz davlatlari har yili qariyb 2 mrd. dollargacha mablag' yo'qotmoqda. Bunday murakkab jarayon yanada kuchaysa, muammolar kompleks hal etilmasa, kelgusida aholi jon boshiga suv bilan ta'minlash ko'rsatkichi 25 foizga, hosildorlik esa 40 foizga qisqarib ketishi mumkin. Iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish keng hamkorlikni talab qiladi.

Davlatimiz rahbari gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Ishlab olinayotgan faol tashabbuslarni va aniq rejalarini doimiy va tizimli rag'batlantirish maqsadida SPECA Tadbirkor ayollari kengashini tuzish taklif qilindi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz ushbu kengash doirasida mamlakatlarimiz ravnaqi va iqtisodiy taraqqiyotiga, umumiy hamkorligimizga beqiyos hissa qo'shib kelayotgan ayollarni "SPECA e'tirofi" xalqaro mukofoti bilan taqdirlash tashabbusini ilgari surdi.

O'zbekiston yetakchisi hamkasblariga, Yevropa iqtisodiy komissiyasi va ESKAP rahbariyatiga murojaat qilar ekan, SPECA doirasida Afg'oniston bilan ishchi aloqalarini o'rnatish va hamkorlikni qayta tiklashga chaqirdi. Zero, bu mamlakatni o'z muammolari bilan yakka qoldirish, "o'z yog'ida o'zi qurilish"ga yo'l qo'yish mumkin emas. Amaldagi hukumat bilan xalqaro muloqot o'rnatilmasa, hech qanday ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.

Aslida ham, Afg'oniston Markaziy Osiyoning ajralmas qismi bo'lib, SPECA doirasida ilgari surilgan tashabbus va loyihalarga erishish hamda amalga oshirishning asosiy omilidir. Shunday



ekan, BMT Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishda faol rol o'ynashi va ushbu mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirishda ishtirok etishi dardor.

Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston afg'on zaminida tinchlik o'rnatish va taraqqiyot bo'yicha amaliy tashabbuslarni ilgari surayotgan yetakchi davlatlardan. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev dunyo anjumanlarida Afg'onistonni muammolari bilan yolg'iz qoldirmasdan, u bilan xalqaro muloqot o'rnatish zarurligini bir necha bor qayd etgan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, 1998-yil 26-martda Toshkent deklaratsiyasi bilan tashkil qilingan va ishtirokchi davlatlar — Ozarbayjon, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston tomonidan imzolangan BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari bo'yicha maxsus dasturi boshqaruv organi faoliyati, umumiy qarorlarini ishlab chiqish, tashkilot kotibiyatini va SPECA jamg'armasini yaratish kabi tashkiliy masalalarni izchil hal etib kelmoqda.

SPECA birinchi sammitining Bokuda o'tkazilishi barcha ishtirokchi davlatlarning mintaqada iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun transchegaraviy hamkorlik platformasini ta'minlashni amalga oshirishga tayyorligini

Xullas, davlatimiz rahbarining BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturining birinchi sammitidagi ishtiroki O'zbekistonning mintaqaviy siyosati va mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarining mantiqiy davomi bo'lib, unda ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatimizning SPECA doirasidagi ko'p tomonlama, ochiq, amaliy va o'zaro manfaatli sheriklikni izchil rivojlantirishga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Zero, mintaqada mustahkam taraqqiyot, barqarorlik va faronlikni ta'minlash — biz to'liq erisha oladigan mushtarak vazifa. Asosiysi, bundan barcha — Markaziy Osiyo davlatlari ham, boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko'radi.

Sobitxon TURG'UNOV,
Namangan davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

HAMJIHATLIKDA YUKSAK MARRALARGA ERISHAMIZ



O'zbekiston Badiiy akademiyasida yangidan saylangan haqiqiy a'zolariga guvohnomalarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Anjuman

Tadbirida O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi, O'zbekiston xalq rassomi Akmal Nuriddinov ijodkorlari Badiiy akademiyaning haqiqiy a'zolari safiga qo'shilgani bilan tabriklandi.

Bugun mana shu minbardan ijod ahli tomonidan e'tirof etilgan va eng ko'p ovozi olgan rangtasvir ustalarini akademiklar safida ko'rganimdan xursandman, — dedi u. — Safimiz tobora o'sib bormoqda, o'ylaymanki, birdamlikda oldimizga qo'yilgan yuksak marralarga erishamiz. Bu, o'z navbatida, rangtasvir ustalari zimmasiga iste'dodli shogirdlarni tarbiyalashga, samarali mehnati, ibratli sa'y-harakatlari bilan yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishdek mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Ta'kidlanganidek, joriy yilning yakuni bo'yicha O'zbekiston Badiiy akademiyasining ilmiy va badiiy salohiyatini oshirishga, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga benazir hissa qo'shib kelayotgan 9 nafar iste'dodli ijodkor ovozi berish yo'li bilan haqiqiy a'zolikka qabul qilindi va bugungi kunda akademiyaning haqiqiy a'zolari soni 43 nafargacha yetdi.

Mamlakatimizda barcha jabhada bo'lgani kabi tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga

alohida e'tibor qaratilmoqda. Birgina 2023-yil mobaynida O'zbekiston Badiiy akademiyasi tomonidan qator xalqaro darajadagi loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, akademiyasi tomonidan TURKSOY tashkiloti bilan hamkorlikda Turkiya xalqlar nifis san'ati akademiyasini tashkil etish bo'yicha I xalqaro yig'ilish o'tkazildi. Shuningdek, Samarqand shahrida "Toshkent — 2023" II xalqaro haykaltaroshlik simpoziumi, "Xalqaro an'anaviy tasviriy va amaliy san'at festivali", IV Toshkent xalqaro amaliy san'at biyennalesi uyushtirildi.

Ikki bor O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi bilan hamkorlikda "Art Gallery" auksion uyi faoliyati yo'lga qo'yildi. Toshkent shahrida joylashgan auksion uyi tarkibida nashriyot-matbaa uyi, "Art appraisal center" san'at asarlarini baholash kompaniyasi, "Art Gallery" san'at galereyasi va san'at asarlarini texnologik ekspertizadan o'tkazuvchi maxsus laboratoriya faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yilning 3-may kuni O'zbekiston tarixida ilk bora tasviriy san'at asarlarini auksioniy muvaffaqiyatli o'tkazildi.

O'zbekistonda tasviriy va amaliy san'atni yanada rivojlantirish hamda xorijda ommalashtirish maqsadida Xalqaro an'anaviy tasviriy va amaliy san'at festivali doirasida



ENG GAVJUM CHORRAHADAGI KATTA EKRANDA O'ZBEKISTONNING SAYYOHLIK SALOHİYATI NAMOYISH ETILMOQDA

Yaponiya poytaxtida joylashgan eng yirik Shibuya chorrahasidagi katta ekranda O'zbekistonning boy madaniy merosiga bag'ishlangan videolavhalar namoyishi boshlandi.

O'zbekiston elchixonasi tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu loyihadan maqsad — mamlakatimizga Yaponiyadan sayyohlar oqimini oshirish, tarixiy shaharlarimizning turizm salohiyatini keng targ'ib qilishdan iborat.

Aytish joizki, 15 soniya davom etadigan videolavhalar ertalab soat 6.00 dan yarim tungacha ko'rsatiladi. "O'zbekiston — sivilizatsiyalar chorrahasi" mavzuida tayyorlangan ushbu videolavhalarda Samarqand, Buxoro, Xiva jamoatchiligi o'rtasida mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini keng targ'ib etishga xizmat qiladi.

Ma'lumot o'rinda: Shibuya — nafaqat Tokiodagi, balki dunyodagi eng gavjum poydalar o'tish chorrahasi



kabi shaharlarimizning shonli tarixi va qadimiy obidalari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar Yaponiya poytaxti aholisi va mehmonlari e'tiboriga taqdim qilinmoqda. Ushbu namoyish, shubhasiz, Yaponiya hisoblanadi. Bu yerdan bir vaqtning o'zida 3 mingdan ortiq aholi o'tadi. Dam olish kunlari esa chorrahadan salkam 2,5 million kishi foydalanadi.

"Dunyo" AA,
Tokio

Nurulloh OSTONOV
("Xalq so'zi").

Senat qo'mitalarida

MUDOFAA VAZIRINING AXBOROTI ESHITILDI



Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi yig'ilishida navbatdagi yalpi majlisdan o'rin olgan masalalar ko'rib chiqildi. Ayni chog'da Qurolli Kuchlar qurilishi, uni yanada rivojlantirishning dolzarb muammolari, fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi va mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlashga oid masalalar yuzasidan Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, 2023-yilning o'tgan davrida Mudofaa vazirligi tizimida fuqarolar murojaatlari bilan ishlash holati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligining axboroti eshittildi.

Dastlab "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi, "Soliq va budget qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyi javobgarlik yanada liberalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunlar ko'rib chiqildi.

Ulariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan senator va ekspert o'z fikrlarini bildirib, qonun tashabbuskorlaridan yangi kiritilayotgan normalar yuzasidan tushuntirish so'radi.

Qizg'in muhokamadan so'ng majlisda Mudofaa

vazirligi tizimidagi ishlarga e'tibor qaratildi.

Qayd etilganidek, 2022-yilning 13-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni rahbarligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosi doirasida Mudofaa vazirligi tomonidan samarali ishlar amalga oshirildi. Qo'shinlar doimiy jangovar shaylgini saqlash maqsadida joylarda 1 mingtadan ko'p to'satdan tekshiruvlar real jangovar vaziyatlarga yaqin sharoitda o'tkazildi. Natijada operativ tayyorgarlik tadbirlari soni o'tgan yildagiga nisbatan 1,2 barobar ko'payib, qo'mondonlik tarkibining kasbiy tayyorgarligini oshirishga erishildi.

Shu bilan birga, joriy yilning o'tgan davrida fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish hamda xizmat muddatini o'tab bo'lganlarni Qurolli

Kuchlar rezerviga bo'shatish tadbirlari izchil amalga oshirilgan.

Jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, shuningdek, bilim saviyasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan 5 mingga yaqin muddatli harbiy xizmatchilarga oliy o'quv yurtlariga imtiyozli o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berilgan.

Joriy yilning o'tgan davrida Mudofaa vazirligi tomonidan harbiy kadrlarni tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar olib borilgan. Masalan, Qurolli Kuchlar Akademiyasida harbiy pedagogika va psixologiya mutaxassisliklari bo'yicha 2 yillik maxsus sirtqi ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgan.

Qo'shinlarni yangi namunadagi qurol-aslaha va texnikalar bilan butlash, modernizatsiya qilish va ta'mirlash ishlari ham izchil davom ettirilmog'da. Mudofaa vazirligi tizimida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash faoliyati tizimli yo'lga qo'yilgan bo'lib, shu yilning 11 oyida jismoniy va yuridik shaxslardan 4074 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 1826 tasi ijobiy hal etilgan, 2005 ta murojaatga huquqiy maslahat berilgan va 243 tasi o'rganib chiqilmog'da.

Majlisda muhokama qilingan masalalar yuzasidan Senat qo'mitasining aniq takliflar aks etgan qarori qabul qilindi.

YAYLOVLARNING YARMI TURLI DARAJADA INQIROZGA UCHRAGAN

Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi majlisida dastlab "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi qonun atroflicha muhokama qilindi.

Senatorlar ushbu moliyaviy hujjatning asosiy parametrlariga o'talish jarayonida qishloq xo'jaligi siyosatini amalga oshirishda qulay investitsiyaviy muhit yaratish hamda eksportni rag'batlantirishga yo'naltirilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish zarurligiga alohida e'tibor qaratdi. Ayni chog'da agrar sohaga ajratilayotgan budget mablag'lari sarflanishi yuzasidan aniq hisob-kitob qilinganligi bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralar vakillarining ma'ruzalari tinglandi.

Qolaversa, majlisda yaylovlari degradatsiyasining oziq-ovqat

xavfsizligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va atrof-muhitga salbiy ta'siri yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovini yuborish masalasi ham ko'rib chiqildi. Qayd etilganidek, yaylovlari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, mintaqamizda ekologik muvozanatni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, chorvachilikni rivojlantirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashda asosiy ta'biy manbalardan hisoblanadi. Shu bois 4,2 mln. gektar yaylovda geobotanik tadqiqot o'tkazilib, degradatsiyaga uchragan maydonlar xaritalari

tayyorlangan va 420 ming gektar degradatsiyaga uchragan yaylovlarni qayta tiklash va yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Majlisda bu borada o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb masalalar mavjudligiga e'tibor qaratildi.

Jumladan, yurtimizdagi 21 mln. gektar maydonni egallagan yaylovlarning 50 foizdan ortig'i turli darajada inqirozga uchragan, asosiy yaylovlarning tabiiy ravishda yem-xashak hisob qilish salohiyati pasayib, yaroqsiz holatga kelib qolgan. Yaylovlarda chorva mollarni almashlab boqish tizimi yo'qligi va chorva mollari soni keskin ortganligi bois yaylov yerlari katta bosim ostida qolgan. Buning oqibatida ozuqabop yem-xashak o'simlik turlari siyraklashib, yo'qolib ketish darajasiga yetgan.

Ushbu masalalarga oydinlik kiritish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga

parlament so'rovini yuborish bir ovozdan ma'qullandi.

Bundan tashqari, hududlarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarilishi va irrigatsiya-melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganish natijasi muhokamadan o'tkazildi.

Shu munosabat bilan Sirdaryo viloyatining Sayxunobod, Guliston va Boyovut tumanlarida ayrim irrigatsiya obyektlaridagi gidrotexnik inshootlarni avtomatlashtirish ishlarini bajarilmagani hamda "aqilli" usul qurilmalari to'liq o'rnatilmaganiga urg'u berildi.

Ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.



Xususan, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan davlat daromadlari ijrosi bo'yicha foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, soliq to'lovlari bo'yicha boqimanda qarzdorlik oshganligi deputatlarining asosiy e'tirozlariga sabab bo'ldi. Ushbu holat yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralar batafsil tushuntirishlar berdi.

Majlisda, shuningdek, ayrim vazirliklar tomonidan Davlat budgetidan ajratilgan mablag'larning to'liq o'zlashtirilmasdan qolayotgani deputatlar e'tiboridan chetda qolmadi. Xususan, belgilangan rejaqa ko'ra, ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar 94,3 foizga, fanga yo'naltirilgan xarajatlari — 90,7, suv o'rnatilgan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash xarajatlari — 73,3, uy-joy kommunal ishlar xarajatlari — 91,1 va tabiiatni muhofaza qilish xarajatlari 91,2 foizga bajarilgani deputatlar e'tiroziga sabab bo'ldi.

Bundan tashqari, maktablarda ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash uchun ajratilgan mablag'lar 46,1 foizga, Raqamli texnologiyalar vazirligida

rivojlantirish dasturlari bo'yicha iqtidorli yoshlarning xalqaro darajadagi IT-sertifikatlarini olish xarajatlarning 50 foizini qoplab berish uchun xarajatlari 35,8 foizga, Sog'liqni saqlash vazirligida "Elektron sog'liqni saqlash" tizimini keng joriy etish, yaqonda milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi majmuasini yaratish uchun ajratilgan budget mablag'lari 26,3 foizga, bolalar tibbiyot va tug'uruq muassasalarida yuqori texnologik laboratoriya uskunalaridan to'la qonli va samarali foydalanish maqsadida reagentlar, sarflanadigan anjomlar hamda servis xizmatlari uchun ajratilgan mablag'lar atigi 21,8 foizga o'zlashtirilganligi deputatlar qoniqarsiz, deb baholadi.

Majlisda sovuq kunlar boshlanib, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari yakunlanayotganiga qaramasdan issiqlik ta'minoti uchun ajratilgan mablag'lar 45 foizga o'zlashtirilganligi jiddiy tanqid ostiga olindi. Shu bois mazkur vazirliklarga ushbu holatlarni chuqur tahlil qilib, ochiq va ta'sirchan choralar ko'rish, qanday ishlar amalga oshirilayotganligi yuzasidan savol berdi.

TRANSPORT VAZIRLIGIGA QANDAY E'TIROZLAR BO'LDI?



Xususan, "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda iqtisodiyot va moliya, Transport, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirliklari hamda Toshkent shahar hokimligiga Davlat budgeti hisobidan yoki davlat-xususiy sheriklik asosida Toshkent shahrida ko'p qavatli avtoturargohlarni qurish va ularni tayyor biznes sifatida tadbirkorlik subyektlariga avtoturargoh profiline o'zgartirish sharti bilan sotish amaliyotini joriy etish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklatilgan. Lekin shu vaqtga qadar mazkur vazifaning ijrosi bajarilmagani deputatlarining e'tiroziga sabab bo'ldi.

Deputat Tavakkal Choriyev shaharlarimizda avtobus bexatlarining holati talab darajasida emasligi, ularning aksariyat qismidan faqat tijorat maqsadlarida foydalanilayotganiga e'tibor qaratdi. Markaziy ko'chalarda tirbandlikka sabab bo'layotgan muammolardan yana biri — avtotransportlar uchun to'xtash joylarini yetarli emasligi, markazlarga ekologik nuqtayi nazaridan avtomobillar kirishini cheklash haqida takliflar anchadan beri ilgari surilayotgan bo'lsa-da, bu borada ishlarning to'liq yakunlanmagani ta'kidlab, shahar yo'llarida avtomobillar to'xtash joylarini, markazlarda esa pulliklarni tashkil etish bo'yicha

qanday ishlar amalga oshirilayotganligi yuzasidan savol berdi.

Shuningdek, deputat Sherzod Rahmonovning aytishicha, yilning ma'lum davrlarida, asosan, bayram ta'tillari munosabati bilan talaba yoshlarimizga temir yo'l va aviachiptalarga chegirmalar e'lon qilinyotgani, shubhasiz, tahsinga sazovor. Lekin ijtimoiy tarmoqlar barcha chiptalar sotib bo'linganidan keyingina chegirmalar haqida jar solinyotgani, bu yangilik talabalarimiz uchun samarasizligi haqida e'tirozlariga to'la. Umuman, e'lon qilinyotgan chegirma va imtiyozlarni amalga oshirishga vazirlik imkoniyatlarini qay darajada yetarli? Tezyuraro poyezdlarga chiptalar taqchilligi, ularning ochiq savdoda kamyobligini hisobga olib, nega qo'shimcha reyklar yo'lmaydi? Bu muammo aviaturanspoqta ham tegishli. Qachongacha temir yo'l, aviachiptalar masalasi ijtimoiy tarmoqlarda doim shov-shuvga sabab bo'ladi?

"Hukumat soati"da deputat Baxitbay Aldamuratov Toshkent shahrida jamoat transporti uchun tashkil etilgan maxsus yo'lakchalar samaradorligi natijalari, qo'shni mamlakatlarda 8 — 10 yildan buyon yo'lga qo'yilgan bunday tizimlarning bizza faqat poytaxtda, shunda ham faqat barmoq bilan sanab bo'ladigan ko'chalardagina yo'lga qo'yilgani sabablari bilan qiziqib, bu borada Yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan

hamkorlik qanday yo'lga qo'yilganini so'radi.

Shuningdek, majlisda deputatlar tomonidan saylov okruglaridagi saylovchilari bilan uchrashuvlar jarayonida ilgari surilayotgan takliflar, qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarda aholi tomonidan bildirilayotgan e'tirozlardan kelib chiqib, jamoat transport haydovchilarini tanlash, ularning malakasi va madaniyatini oshirish, jamoat transportidan foydalanishda imkoniyati cheklangan yo'lovchilar, xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan qulayliklar yuzasidan ham savollar o'rtaga tashlandi.

Vazir va soha mas'ullari tomonidan deputatlar ko'targan yuqoridagi va boshqa savollarga berilgan javoblar deputatlar to'liq qanoatlantirardi.

Shu sababli Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasiga masalani yanada chuqurroq o'rganish va kelgusi yig'ilishlarning birida deputatlarga axborot berish topshirildi.

Qizg'in muhokamalarda deputatlar aholiga transport xizmati ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, jamoat transporti yo'nalishtirish tarmog'ini kengaytirish va tizimdagi ko'rsatkichlarni yanada oshirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalarni ilgari surdilar.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Qonunchilik palatasining tegishli qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

Parlament axborot markazi.

BUDJET XARAJATLARINING IJTIMOY YO'NALTIRILGANLIGI SAQLAB QOLINMOQDA

Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi yig'ilishida "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi qonun muhokama etildi. Unda kelgusi yilda Davlat budgeti daromadlari 270,4 trln. so'mni, xarajatlari davlat maqsadli jamg'armalarga transfertlarni inobatga olgan holda 312,9 trln. so'mni tashkil qilishi ilmiy o'tildi.

O'z navbatida, senatorlar budget daromadlarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratib, yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish hamda budget mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish, ajratilgan mablag'lar natijadorligini ta'minlash yuzasidan fikr bildirdi.

Qayd etilidiki, keyingi yilda ham budget xarajatlari ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlanmoqda. Ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, fan, madaniyat hamda sportni rivojlantirish, muhtoj aholini uy-joy bilan ta'minlash va boshqa ijtimoiy tadbirlar uchun jami Davlat budgeti xarajatlarning 50 foizi yoki 151,5 trln. so'm yo'naltiriladi.

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokamasida ta'kidlanganidek, u bilan Soliq

kodeksiga soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo'yicha qarorlari ustidan tadbirkorlarning to'g'ridan-to'g'ri sudga shikoyat etishiga doir cheklavilarni bekor qilishni hamda sudga shikoyat berish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Qolaversa, bir qator qonunlardagi tadbirkorlik subyektlarining ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinganda kreditorlarni yozma ravishda xabarдор etish va ommaviy axborot vositalarida va boshqa e'lon berish talabini bekor qilinyotir.

Qo'mita majlisida Namangan va Farg'ona viloyatlari hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi" ijrosi ham ko'rib chiqildi. Unda mazkur viloyatlarni rivojlantirish, aholi turmush darajasini

yanada yaxshilash va bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ishlar holati batafsil muhokama qilindi.

Ayib o'tilganidek, investitsiya dasturlari doirasida Namanganda 705,4 mln. dollarlik 1072 ta, Farg'onada 518,1 mln. dollarlik 1016 ta loyihaga ishga tushirilgan. Shunga mos ravishda 639,5 mln. hamda 827,8 mln. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida Namangan viloyatida 83 ta, Farg'ona viloyatida 76 ta obyekt foydalanishga topshirilgan. Bandlik dasturi ijrosi doirasida Namanganda 541,3 ming va Farg'onada 558,6 ming kishining ishi bo'lishi ta'minlangan.

Yig'ilishda aholi bandligiga erishish hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan kredit mablag'laridan samarali foydalanishda muayyan muammolar mavjudligi ham qayd etildi.

Ko'rilgan masalalar yuzasidan Senat qo'mitasi qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

MUHOKAMA

DEPUTATLAR MILLIY MA'RUZA BO'YICHA DOLZARB MASALALARNI KO'TARDI

DARYOLAR O'ZANLARINI TOZALASH QONUN DOIRASIDA OLIB BORILYAPTIMI?



Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan Sirdaryo viloyati hududidan oqib o'tgan Sirdaryo daryosi o'zanida 16 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan daryo o'zanini tozalash ishlari tartibida amalga oshirilganligi oqibatida daryo qo'ng'oqlari yemirilganligi va 4,6 ming metr kub inqonuniy qazish ishlari bajarilgani aniqlanib, ularga nisbatan tabiiy obyektlarga yetkazilgan 7,4 mlrd. so'm zararni undirish choralarini ko'rilmoqda.

Jizzax viloyatida Sangzor daryosining 6 ta nuqtasida bir qator korxonalar hamda jismoniy shaxslar tomonidan noqonuniy qazish ishlari bo'yicha aniqlangan holatlar yuzasidan prokuratura tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Samarqand viloyatida olib borilgan nazorat tadbirlarida yetkazilgan zarar summalari aniqlanib, to'plangan hujjatlar viloyat prokuraturasiga kiritildi. Jumladan, "Samarqand keramiki" MChJ Nurobod tumanidagi Sag'ansoy soyidan noqonuniy ravishda qizil qum aralashmasi qazib olgani bois tabiiy obyektg'a 1,8 mlrd. so'm, "Mironshoh Mirkomil" XK Pastdarg'o'm tumanidagi Kimyogarlar qo'rg'onidan oqib o'tuvchi "Eski anhor" kanali muhofaza doirasidan noqonuniy ravishda tabiiy qum qazib olganligi tufayli tabiiy obyektlarga 3,6 mlrd. so'm, Jomboy tumanida joylashgan "Olmazor sevinch" MChJ tomonidan noqonuniy tarzda qumshag'al aralashmasi olinishi hisobiga tabiatga 4,8 mlrd. so'm miqdorida zarar yetkazilgan.

Hozirgi paytda jami 58 ta jinoyat ishi bo'yicha aniqlangan holatlar natijasida tabiatga 61,5 mlrd. so'm zarar yetkazilgani hisoblanib, ularni undirish choralarini ko'rilmoqda.

Ekologiya organlari tomonidan tasdiqlangan loyiha hujjatlari hamda ekologiya ekspertiza xulosalari talablari asosida o'zanza tozalash ishlari yuritilishi doimiy ravishda o'rganilmoqda. Jumladan, respublika bo'yicha 311 ta tadbirkorlik subyekti joyiga chiqqan holda monitoring qilindi.

Chirchiq daryosi o'zanida yuzaga kelgan tang ekologik ahvolini inobatga olib, o'zanza tozalashga jalb etilgan 18 ta tadbirkorlik subyekti faoliyatini bosqichma-bosqich to'xtatish choralarini ko'rilyapti. Xususan, 3 ta tadbirkorlik subyekti bilan tuzilgan shartnoma bekor qilindi.

Umuman, parlament so'rovida ko'tarilgan masalalarga to'liq yechim topish ta'minlanmoqda, uzoq muddat talab etadigan vazifalar ijrosi esa Senat tomonidan nazorat qilib borilmoqda.

"Xalq so'zi".

Tajriba va amaliyot

Avval xabar qilinganidek, kuni kecha bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Qayd etish joiz, mazkur milliy ma'ruza agentlik tomonidan quy palataga taqdim qilingan ikkinchi ma'ruza hisoblanadi.

Mamlakatimiz tajribasida yangi amaliyot bo'lishiga qaramasdan milliy ma'ruzaning ahamiyati tobora ortib bormog'da. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda parlament palatalarining birgalikdagi vakolatlariga korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitish ko'zda tutilgani ham buning isbotidir.

Majlisda deputatlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar va kompleks chora-tadbirlar yuzasidan atroflicha ma'lumot oldilar.

Ko'riyotgan sa'y-harakatlar natijasida aholida korruptsiyaga qarshi murosasiz muhit paydo bo'lib, O'zbekistonning bu boradagi xalqaro reyting va indekslardagi o'rni yaxshilangan ta'kidlab o'tildi. Xususan, "Transparency International" korruptsiyani qabul qilish indeksida 14 pog'ona, "Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro nohukumat tashkilotining huquq ustuvorligi indeksining "korruptsiyaning mavjud emasligi" indikatorida 4 pog'ona, Jahon boshqaruv sifati indikatorlari ("WGI")ning "korruptsiyani tiyib turish" indikatorida 15 pog'ona, "Trace Matrix" poraxo'rlik matritsasi 16 pog'ona, Hukumat ochiqligi bo'yicha "Open data inventory" reytingida 5 pog'ona ko'tarilishiga erishildi.

NNT va fuqarolik jamiyati institutlari roli qanday?

Darhaqiqat, bugungi kunda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar salmoqli. Xalq vakillari buni e'tirof etgan holda, hududlarda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida ayrim muammolar ko'zga tashlanayotgani bo'yicha bir qator savollarni o'rtaga tashladi.

Xususan, deputat, Ekologik partiya fraksiyasi a'zosi Navrozbek Yusupov

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish yo'nalishida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlashga mas'ul bo'lsa-da, bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli yetarli emasligini qayd etdi. Deputatning fikricha, professional tahlillar asosida korruptsiya sxemalarini fosh qilishga qodir bo'lgan, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan takliflarni ko'tarib chiqi oladigan, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarni jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazgan holda ularning kompersion omillarni bartaraf etish borasida tavsiyalarni ishlab chiqi oladigan NNT ko'zga ko'rinmayapti. Ular faqat treninqlar, targ'ibot ishlari va qatnashish bilan cheklanmog'da.

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burhonov bu boradagi tahlillarga to'xtalib o'tdi.

Aytilganidek, 2020-yilgacha O'zbekistonda nafaqat fuqarolik jamiyati institutlari, balki ayrim davlat idoralari ham korruptsiyaga qarshi kurashish bilan deyarli shug'ullanmagan. 2020-yilda Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan agentlik tashkil etilib, uning zimmasiga bir qator vazifalar, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari va NNTning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish bo'yicha ham qator vazifalar belgilangan. 2020-yilda, afsuski, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bironta ham NNT yo'g' edi. Shular inobatiga olingan holda, agentlik huzurida Jamoatchilik kengashi tuzildi. Asosiy a'zolari sifatida fuqarolik jamiyati institutlari va NNT vakillari kiritildi. Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan bu boradagi ishlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy buyurtma va grantlar ajratilgani ham o'z samarasini berdi. Natijada hozirgi vaqtda bevosita korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 6 ta NNT faoliyati yo'lga qo'yildi. 2030-yilga mo'ljallangan strategiyada grantlar ko'laminii kengaytirish, bu

boradagi vazifalar ko'laminii kuchaytirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda korruptsiyaga sharoit yaratuvchi normalar nega uchramog'da?

Qonunchilik palatasi deputati, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Gulruh Agzamova normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarning korruptsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta'minlash, shuningdek, korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish yo'nalishidagi qonunchilikni takomillashtirish agentligining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanganini, biroq bugungi kunda ayrim sohalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda korruptsiyaga sharoit yaratuvchi normalar hanuzgacha saqlanib qolayotgani bo'yicha savolni o'rtaga tashladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining qayd etishicha, shu yil avgust oyida "Normativ-huquqiy hujjatlarining va ular loyihalarning korruptsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishiga erishilgan. Uning maqsadi normativ-huquqiy hujjatlarining va ular loyihalarning korruptsiyaga qarshi ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, unda eng avvalo, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarning korruptsiyaga qarshi kurashish ekspertizasi mas'ullar belgilandi. Ilgari Adliya vazirligi ushbu vazifaga mas'ul bo'lgan bo'lsa, endilikda qonun bilan har bir vazirlik va idoraning yuridik xizmati ham javobgarlikni zimmasiga olgan. Bundan tashqari, korruptsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazishining aniq asoslari va tartiblari belgilandi. Chunki qonun qabul qililungga qadar har il yondashuvlar bor edi va ularni bartaraf etish masalasi ochiq qolayotgandi. Qonun imzolagach Adliya vazirligi bilan birgalikda qo'shma chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Bu bo'yicha eng ko'p korruptsiyaviy omillar mavjud sohalar aniqlab olinib, o'sha tarmoqlardagi nafaqat

loyihalar, balki amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarini ham majburiy korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha reja-jadval belgilab olindi. Buning asosida 2023-yil yakunlari bo'yicha birgina agentlikka kelib tushgan 140 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarning 80 tasida korruptsiyaviy omillar aniqlangan va bu hujjatlar qaytarilgan. Bu borada hali qilinadigan ishlarimiz ko'p.

Biz va jahon

ROSSIYA POYTAXTIDA "O'ZBEKISTON KUNLARI" SHIORI OSTIDA MADANIY-MA'RIFIY TADBIRLAR O'TKAZILDI

Mamlakatimiz elchixonasi tomonidan Moskva shahridagi Imom Muhammad al-Buxoriy nomidagi markaz bilan hamkorlikda "O'zbekiston kunlari" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

Ularda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari Shovosil Ziyodov boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi qatnashdi. Shuningdek, Rossiya Fanlar akademiyasi "DAR" markazi, "Rus — o'zbek hamdo'stligi" markazi, Moskva davlat lingvistik universiteti qoshidagi o'zbek tili va madaniyati markazi rahbariyati va vatandoshlar ishtirok etdi.

Tadbir doirasida o'zbek milliy hunarmandchilik mahsulotlari, cholg'u asboblari, matolar, kitoblar ko'rgazmasi, shuningdek, mamlakatimizning turizm salohiyati taqdimoti hamda mahorat darslari tashkil etildi.

"DAR" markazida bo'lib o'tgan "O'zbekiston kunlari" ma'rifiy anjumanining ochilish marosimida so'zga chiqqanlar so'nggi yillarda respublikamizda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va turizm sohalarida erishilgan yutuqlar, vijdon va e'tiqod erkinligini ta'minlash, ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yuqori baholadi. Qatnashchilar, joriy yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdi.

"DAR" markazi talabalari buyuk allomalimiz hayoti va ijodi haqida so'zlab, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasini ifodali o'qib berishdi.

Tadbir doirasida O'zbekiston elchixonasi nomidan "DAR" madaniyat markazi kutubxonasiga 100 nomdan ortiq o'zbek tilidagi badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi.

"Dunyo" AA. Moskva

PIROTEKNIKA MASHMASHASI

Har qishda shu bo'lar takror...

Ayni kunlarda yurtimizda bayramlar shukhi kezb yuribdi. Yaqinda Konstitutsiyamizning 31 yilligini keng nishonladik, oldimizda turgan galdagi barcha uchun yoqimli va quvonchli ayyom esa, bu — Yangi yil. Har yili xalqimiz bu ayyomni munosib qarshi olish uchun alohida hozirlik ko'radi. Yaqinlar, qavmni qarindoshlar to'kin dasturxon atrofida yig'ilishib, diydorlashadi, o'tgan davrni sarhisob qiladi. Albatta, bayram shunisi bilan esda qolarli va qadrli.

Ammo mana shunday chiroyli kun zavqi noxush voqea-hodisalarga ulanib ketish holatlari ham, afsuski, uchrab turadi. Bu o'rinda gap har yili Yangi yil bayrami arafasida ko'tariladigan mavzu — paqildoqlar haqida ketayotir.

Dolzarb mavzu

Yangi yil bayramiga hali vaqt bor. Biroq allaqachon ko'cha-ko'y, turarjoylar atrofi va boshqa jamoat joylarida paqildoqlar quloqni qomatga keltira boshladi.

Vaholanki, piroteknika vositalari tez yonadigan moddalar, masalan, poroxdan tayyorlanadi va ularning deyarli barchasi yong'in chiqishi nuqtayi nazaridan xavfli buyumlar sirasiga kiradi. Mavsum oldidan piroteknika vositalarining xavfi va uning salbiy oqibatlarini haqida axborot manbalarida, turli uchrashuv hamda suhbatlar davomida aholi o'rtasida targ'ibot-tushuntirish ishlari haqida takror-takror aytilsa-da, afsuski, paqildoqlardan foydalanish yana davom etaveradi.

Xo'sh, nega shunday? Ushbu muammoni ildizi bilan yo'q qilish yoxud bartaraf etish mumkinmi yo'yo'q? Bu haqda tegishli idoralar mutasaddilari fikrlari bilan qiziqdik.

— Muammoning asosiy sabablaridan biri piroteknika vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq, — deydi Bojxona qo'mitasining Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi bosh inspektori, bojxona xizmati podpolkovnigi Husan Tangriyev. — Odatda, aynan Yangi

yil arafasida piroteknika buyumlarining noqonuniy muomalasi nafaqat bizda, mintaqada, balki dunyo bo'ylab avj oladi. Shu sababli ayrim "uddaburon" tadbirkorlar ham o'tni vaqtiroq qamchilashga urinishadi. Misol uchun, o'tgan yili bu holat avgust oyidan "urichgan" bo'lsa, shu yil sentabr oyidanoq turli xil piroteknika vositalarini yurtimizga noqonuniy olib kirishga urinishlar fosh qilina boshladi.

Bojxona qo'mitasi taqdim etgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning o'tgan 11 oyi davomida bojxona organlari tomonidan aniqlangan 85 ta holatda qiymati salkam 2,2 mlrd. so'mlik 1 mln. 951 ming dona piroteknika vositasining noqonuniy olib kirilishi hamda ichki hududdagi yashirin aylanmasiga chek qo'yilgan. Piroteknika buyumlarining qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq aniqlangan holatlar bo'yicha bojxona organlari tomonidan o'nlab jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Bojxona xizmati podpolkovnigi H. Tangriyevning aytishicha, chegara-bojxona postlari orqali piroteknika buyumlarini olib o'tish umuman imkonsiz. Bu turdagi vositalarni, asosan, bojxona nazorati

o'rnatilmagan turli aylanma yo'llar, murakkab joylashuvga ega chegaradosh hududlardan olib o'tishga urinishmoqda. Chegaradosh hududlardagi ayrim yurtdoshlarimiz esa noqonuniy olib kirilayotgan piroteknika vositalari uchun o'z xonadonlaridan vaqtinchalik joy berayotgani juda achinarli holat. Shunday ekan, bu borada bizga jamoatchilik nazorati kerak, mahallalar faollari, keng jamoatchilik vakillarining fidoyiligi zarur.

Shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda kunda-kunora paqildoq "biznesi" fosh qilingani haqidagi xabarlar berilmoqda. Yaqinda Farg'ona viloyatida 407 million so'mlik salyut va paqildoqlar to'xtatib qolingani ham haqiqat. Tasavvur qilaysizmi? 407 million so'm. Bu — taxminan 30 — 40 ming AQSH dollari, degani. Shu "biznes"ga pul tikayotgan "ishbilamon" bu tovar ichki bozorda sotilishiga ishonadiki, unga qo'l uradi.

Xaridor kim? Sizu biz. Eng achinarlisi, o'quvchi-yoshlar. Paytdan unumli foydalanib qoluvchi "uddaburon"larning tegimoniga suv quyayotganlar ham aslida o'zimiz. Paqildoqlarni hech kim sotib olmasa, jamiyat "boycot" e'lon qilsa, o'z-o'zidan ushbu mahsulotga bozorda talab so'nadi. Taklif ham yo'qoladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, piroteknika buyumlaridan foydalanishning oldini olishda mahallalar faollari jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirishi kerak. Bu ham muammo yechimida qo'l keladi.

— Targ'ibotda gap ko'p, — deydi Toshkent shahri Yangiyo'l tumanidagi "Yangi turmush" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Xalovat Xo'jayeva. — Mahallamizda har yili aholi, ayniqsa, ota-onalar va yoshlar o'rtasida

piroteknika vositalaridan foydalanmaslik bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi. Ayni paytda qaysi mavzuda tadbir yoki uchrashuv o'tkazsak, albatta, bayram arafasida paqildoqlardan foydalanmaslikni urtiramiz.

Soha mutaxassislarini jalb etgan holda piroteknikaning salbiy oqibatlarini haqida gapirib, videoroliklar ham namoyish qilyapmiz. Bu targ'ibot tadbirlarimizning yanada ta'sirchanligini ta'minlayapti. Olib borilayotgan tushuntirish ishlari samarasi o'laroq, o'tgan davr mobaynida birorta ham paqildoq bilan bog'liq noxush voqea qayd etilmadi. Albatta, bu boradagi ishlarimizni yanada kuchaytiramiz.

Haqiqatan ham, targ'ibotda hikmat ko'p. O'zaro hamkorlik piroteknika mashmashasini hal qilish yoxud keskin kamaytirish bilan bog'liq imkoniyatlarni yanada oshirishi mumkin. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, sog'liqni saqlash xodimlari ham bu targ'ibot tadbirlarida faollik ko'rsatmoqda. Aholiga paqildoqlar inson salomatligi uchun juda xavfli ekanligi to'g'risida zarur ma'lumotlarni, o'z tavsilyalarini berib borishyapti.

— Bu mavzuga takror-takror o'txalamiz, paqildoqlarning salomatlik va hayot uchun xavfli jihatlari xususida chiqishlar qilamiz. Lekin afsuski, bu muammo har qish faslida qarshimizdan chiqaveradi, — deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi bosh direktori Davron To'laganov. — Mana, o'tgan mavsumda Yangi yil arafasi va bayramdan keyingi kunlarda piroteknika vositalaridan olingan jarohatlar tufayli markazimiz hamda uning hududiy filiallariga og'ir ahvoldagi o'nlab bemorlar murojat qildi. Eng yomoni, ularning teng yarmi shifoxonada uzoq muddat davolanishiga to'g'ri keldi.

Ba'zilari hanuz asoratlardan aziyat chekadi. Chunki bunday vositalarning bexosdan qattiq paqillashi kishilarni cho'chitib, yurak-qon tomir tizimiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat fojiali o'lim bilan ham yakun topishi mumkin.

Yuz, ko'z, qo'l sohalarida og'ir kuyish jarohatlari, ko'zlarning shikastlanishi va ko'rish qobiliyatining qisman yoki butunlay buzilishi, jarohat asorati bilan bog'liq plastik operatsiyalarga muhtojlik, kuygan sohalarida dag'al chandiqlar, qo'l barmoqlari sohalarida kontrakturalar hosil bo'lishi paqildoq va salyutlarning salbiy oqibatlaridir. Qolaversa, piroteknika vositalari shovqinidan qattiq qo'rqish tufayli ruhiy buzilish, surunkali asab va qon tomir tizimi kasalliklari, qandli diabet, homilaga ziyon yetishi ehtimoli yuqori. Yaqin masofada piroteknika paqillashidan inson barotravma va akustik jarohatlar olib, karlik yoki umrbod quloq so'ng'illashi (tinnitus) kasalligiga yo'lqishi mumkin.

Mavzuga taalluqli mutaxassislar fikrlarini tinglab shunday deiyish mumkinki, qonuniy taqirlarni cheklatib o'tib, piroteknika vositalarini yashirincha pullayotganlarni jondan aziz farzandlarimiz salomatligi tashvishiga solmayapti. Piroteknika buyumlarining asosiy xaridori — o'yinqaroq bolalaru o'smirlar ekanligini inobatga olsak, masala naqadar jiddiyliyi ayonlashadi.

Bu tegishli idoralar mutasaddilari bilan birga, ota-onalar, ustozu murabbiylar, mahalla faollari, umuman, keng jamoatchilik vakillariga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Piroteknika muammosiga chek qo'yish yo'lida tizimli choralar ko'rish, bu borada nafaqat chegara postlarida, balki aylanma yo'llarda, mahallalarda, oilalarda ham nazoratni yanada kuchaytirish zaruriligi ko'rsatmoqda. Zero, hushyorlik — davr talabi.

Darvoqe, unutmang, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq, piroteknika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ularidan foydalanish, xuddi shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda O'zbekistonga olib kirish yoki o'tkazish — huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yigirma baravarigacha darajada jarima solishga sabab bo'ladi.

Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi").

YOSHLAR SAYILGOHIGA KELING

Farg'ona shahrida Yoshlar sayilgohi o'z faoliyatini boshladi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov va sektorlar rahbarlari ishtirok etib, sayilgohda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi hamda yoshlar bilan muloqot qildi.



G'amxo'rlik

— Sayilgoh shahar markazidagi Kashtanzor ko'chasida — Ahmad Farg'oniy nomidagi xiyobon, Farg'ona davlat universiteti hamda bir qator ma'naviyat va ma'rifat maskanlari joylashgan hududda faoliyat boshlagani yoshlar uchun ayni muddao bo'ldi, — deydi Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari Yusufxon Yusupov. — Yoshlar sayilgohi "Ochiq budget"

axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan loyiha doirasida tashkil etildi. Ezgu tashabbusni amalga oshirish maqsadida Davlat budgetidan 1 mlrd. 32 mln. so'm, bundan tashqari, 500 mln. so'm homiylik mablag'lari jalb etildi.

E'tiborlisi, sayilgohda kinoteatr, restoran, "book-cafe"lar, shaxmat, stol tennis, "PlayStation" o'yinlari va karaoke hududlari hamda fotozonalar faoliyat ko'rsatadi.

Tadbir doirasida "yoshlar daftari"ga kiritilgan 17 nafar yigit-qizga subsidiya asosida pishiriq pechlari, tikuv mashinalari hamda sartaroshlik mebellari taqdim etildi.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

Bayram tufasi

Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 31 yilligi Buxoro shahridagi 24-sonli "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internati jamoasi yodida bir umr qoladigan bo'ldi. Gap shundaki, bayram arafasida ko'zi ojiz o'g'il-qizlar tahsil oladigan bilim maskanining yangi o'quv binosi qurilib, foydalanishga topshirildi.

"NURLI MASKAN" O'QUVCHILARINING ORZULARI USHALDI



— Asosiy Qonunimizda noqononligi bo'lgan fuqarolarning ham boshqalar bilan teng tarzda o'qishi, o'z salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kafolatlab qo'yilgan, — deydi maktab-internat direktori Madamin Aslonov. — Yurtimizda o'g'il-qizlarimizni har tomonlama barkamol tarbiyalash uchun davlatimiz tomonidan qilinayotgan ishlar shu hujjatning amaldagi ifodasidir. 13 milliard so'mdan ziyod mablag' evaziga barpo etilgan 324 o'rinni o'quv binosi, 200 o'rinni yotoqxona, 100 o'rinni oshxonaga jamoamiz uchun bayram arafasida zo'r tufha bo'ldi.

Maktab-internat shu paytga qadar faoliyat yuritgan bino 160 o'quvchi o'rni mo'ljallangan, yotoqxona esa 100 o'rinni edi. Bu esa turli tumanlardan kelib tahsil olayotgan o'quvchilarga ham ayni chog'da o'qituvchilarga ham noqulaylik tug'dirayotgandi.

Bilim dargohining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanayotgani esa o'g'il-qizlar iqtidorini yuzaga chiqarishda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Xususan, Shvetsiyadan 160 million so'm miqdoridagi mablag' evaziga Brayl shriftli printer xarid qilindi. Respublikamizda sanoqli sanagan bunday uskuna vositasida o'quvchilarni, zarur adabiyotlar, shuningdek, iqtidorli yoshlarning ijod namunalari Brayl yozuvida chop etish imkoniyati yaratildi.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorati va mehnat jamoasi institutning o'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i Nigora Isaxanovaga onasi

Zaxro aya SHARIPOVNING vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

REKLAMA

O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti xodimlariga uylar qurilishi bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 118-son qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktabrdagi "Ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarining turar joy-maishiy sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 865-sonli qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti xodimlariga uylarni tayyor holda topshirish shartlari bilan qurilish bo'yicha investorlar yoki qurilish tashkilotlari mutasaddilari hamkorlikka taklif etiladi.

arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo'yicha hisoboti (tijorat taklif); bosh rejaga uylarni loyihalashda 2 va 2,5 sotixlik yer maydoniga bir qavatli kottej tipidagi uylar (3 xonali uylarning yashash maydoni 100 m² dan kam bo'lmagligi lozim) qurilishi bo'yicha taklif kiritilishi shart; loyihalananayotgan uylarga (bosh rejada) qo'shimcha ravishda avtomobillar turarjoyi hamda bolalar maydonchasi bo'lishi shart; loyihalananayotgan uylarning qavatlarini yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori bilan maslahatlashgan holda kelishishi lozim; qurilishi rejalashtirilayotgan uylar uchun alohida isitish va elektr tizimi bo'lishi, qurilishi rejalashtirilgan yer maydonidagi bino va inshootlarni o'z hisobidan demontaj qilish; qurilishi rejalashtirilgan uylar bo'yicha

investor yoki qurilish tashkilotlari loyiha-smeta, geologiya xulosasi, topografik syomka, muhandislik kommunikatsiyalarini tortish va ulash, qurilish ishlari uchun ruxsatnomalar olish va boshqa me'yoriy hujjatlarini o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiradi.

Mazkur shartlar bo'yicha hamkorlik qilish istagida bo'lgan investor yoki qurilish tashkilotlari mutasaddilari 2023-yil 31-dekabr kuniga qadar quyidagi manzilga murojaat etishlari mumkin.

Qurilishi rejalashtirilgan obyekt manzili: O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti 21-son jazoni ijro etish koloniyasiga tegishli Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Bog'zor qo'rg'onida joylashgan qurilish umumiy yer maydoni 58500 m² (5,85 ga.)ni tashkil qiladi.

Murojaat uchun manzil: Toshkent viloyati, Zangiota tumani, "Bog'zor" MFY, Qorasuv ko'chasi, 32-uy. (O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti, murojaat uchun telefon raqamlari: 71-231-54-95, 71-231-45-60).

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR: Devonxonona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mullig'ga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxonaga telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov. Musahhh Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.50 Topshirildi — 23.00 1 2 3 4 5 6